

NAMANGAN VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-sentabr*






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **91** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2580** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-sentabr oyida Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi **12 933,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **106,8 %** ga yetdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **796,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **108,4 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **12136,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,7 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 286,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,0 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	12933,2	106,8	796,6	108,4	12136,6	106,7
Namangan shahar	5177,1	110,0	413,7	115,2	4763,4	109,5
<i>tumanlar:</i>						
<i>Mingbuloq</i>	391,9	109,7	21,3	134,6	370,6	108,6
<i>Kosonsoy</i>	657,6	103,2	6,4	91,0	651,1	103,4
<i>Namangan</i>	567,5	106,5	27,6	67,6	540,0	109,8
<i>Norin</i>	732,4	102,8	37,6	84,4	694,8	104,1
<i>Pop</i>	829,8	106,2	66,3	194,7	763,5	102,1
<i>To'raqo'rg'on</i>	920,4	104,1	88,9	102,9	831,5	104,2
<i>Uychi</i>	727,0	105,3	6,1	93,7	721,0	105,4
<i>Uchqo'rg'on</i>	586,5	103,1	22,6	74,9	563,9	104,7
<i>Chortoq</i>	625,1	106,1	17,5	110,9	607,7	106,0
<i>Chust</i>	1012,3	105,4	70,8	90,4	941,5	106,8
<i>Yangiqo'rg'on</i>	705,5	103,2	17,9	112,2	687,7	103,0

2023- yilning yanvar-sentabr oyida 2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan viloyatining Namangan shahar(**110,0** %), Mingbuloq(**109,7** %), va Namangan (**106,5** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-sentabr, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakan savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan **106,8 %** ni yoki **12 933,2** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar –sentabr oyi)



2023- yilning yanvar-sentabr oyida o'sish sur'ati **106,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



- | | | |
|-----------------|-------------|-----------------|
| ■ Namangan sh. | ■ Mingbuloq | ■ Kosonsoy |
| ■ Namangan | ■ Norin | ■ Pop |
| ■ To'raqo'rg'on | ■ Uychi | ■ Uchqo'rg'on |
| ■ Chortoq | ■ Chust | ■ Yangiqo'rg'on |


Namangan viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri **40,0 %** bilan **5177,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Mingbuloq tumani **3,0 %** bilan **391,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **12 136,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **106,7** % ga ko'paygan. Hududlar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **93,8** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **108,4** % ni tashkil etib va **796,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,2** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Namangan viloya	6,2	93,8
Yangiqo'rg'on	2,5	97,5
Chust	7,0	93,0
Chortoq	2,8	97,2
Uchqo'rg'on	3,9	96,1
Uychi	0,8	99,2
To'raqo'rg'on	9,7	9...
Pop	8,0	92,0
Norin	5,1	94,9
Namangan	4,9	95,1
Kosonsoy	1,0	99,0
Mingbuloq	5,4	94,6
Namangan sh.	8,0	92,0

■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi (**99,2** %), Kosonsoy (**99,0** %) va Yangiqo'rg'on (**97,5** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **6,2** % ni tashkil etib, eng katta ulush To'raqo'rg'on (**9,7** %), Namangan shahar va Pop(**8,0** %), Chust (**7,0** %) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	o'sish sur'ati, foizda
Namangan viloyati	4 277,8	104,4
Namangan shahar	7 555,6	107,1
<i>tumanlar:</i>		
<i>Mingbuloq</i>	2 898,5	107,3
<i>Kosonsoy</i>	2 927,8	100,9
<i>Namangan</i>	2 988,5	104,0
<i>Norin</i>	4 216,3	100,9
<i>Pop</i>	3 561,3	104,1
<i>To'raqo'rg'on</i>	3 808,2	101,5
<i>Uychi</i>	3 173,5	103,0
<i>Uchqo'rg'on</i>	3 203,4	101,0
<i>Chortoq</i>	2 948,8	103,9
<i>Chust</i>	3 592,1	103,4
<i>Yangiqo'rg'on</i>	3 015,1	100,8

2023- yilning yanvar-sentabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 277,8** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **104,4** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (**7 555,6** ming. so'm), Chust (**3 592,1** ming. so'm) va To'raqo'rg'on (**3 808,2** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 286,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **109,0** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 145,7** mlrd. so'mni (**113,3** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1141,0** mlrd. so'mni tashkil etdi (**104,8** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.












UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	2 286,7	109,0	1 145,7	113,3	1 141,0	104,8
Namangan shahar	643,6	115,8	371,7	127,7	271,8	102,4
tumanlar:						
Mingbuloq	105,6	110,0	33,4	102,6	72,2	113,5
Kosonsoy	129,1	102,9	33,2	93,4	95,9	106,5
Namangan	108,7	116,5	44,7	136,9	64,0	105,3
Norin	166,5	108,0	104,3	107,5	62,2	108,5
Pop	158,4	102,7	69,3	98,9	89,2	105,5
To'raqo'rg'on	299,8	109,0	149,0	113,7	150,8	104,4
Uychi	109,4	103,1	40,8	100,1	68,5	104,7
Uchqo'rg'on	99,2	102,1	59,4	97,4	39,9	109,6
Chortoq	153,7	103,4	82,5	100,5	71,2	106,7
Chust	163,7	107,8	99,3	108,4	64,4	106,6
Yangiqo'rg'on	148,9	106,9	58,0	126,4	90,9	97,1

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-sentabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 145,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**589,7** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		mlrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	589,7
	Non va non mahsulotlari	62,7
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	159,2
	Tovuq go'shti	44,7
	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	43,1
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	52,0
	Tuxum	26,0
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	40,8
	Ziravorlar	23,0
	Tuzlamalar	11,7
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	23,9

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-sentabr oyida viloyatimizning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **1 141,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **1017,0** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **111,0**mlrd. so‘mni, otlar – **8,3** mlrd. so‘mni, parrandalar – **4,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	566,1
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	243,3
	1 yoshgachah bo‘lgan yosh mollar	207,6
	Qo‘ylar	103,4
	Otlar	8,3
	Echkilar	7,6
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	3,7
	Tovuqlar	0,9
	Quyionlar	0,07
	Qushlar	0,06

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1-oktabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 653 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-sentabr oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,3 %** ni tashkil etib, **284,5** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,5 %** ga kupaigan. Bunda savdo aylanmasining **85,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	284,5	105,5	41,1	106,4	243,4	105,4
Namangan shahar tumanlar:	157,0	107,7	31,4	113,5	125,6	106,5
<i>Mingbuloq</i>	8,8	104,8	0,0	0,0	8,8	104,8
<i>Kosonsoy</i>	6,0	104,0	0,0	0,0	6,0	104,0
<i>Namangan</i>	18,4	109,7	4,8	132,0	13,6	103,7
<i>Norin</i>	6,9	103,4	0,0	0,0	6,9	103,5
<i>Pop</i>	19,0	103,7	0,0	0,0	19,0	103,8
<i>To'raqo'rg'on</i>	9,1	104,0	0,0	0,0	9,1	104,1
<i>Uychi</i>	5,5	104,3	0,0	0,0	5,5	104,4
<i>Uchqo'rg'on</i>	7,3	104,3	0,0	0,0	7,3	104,3
<i>Chortoq</i>	8,4	105,0	0,0	0,0	8,4	105,0
<i>Chust</i>	32,1	96,4	4,9	67,0	27,2	104,8
<i>Yangiqo'rg'on</i>	6,1	104,0	0,0	0,0	6,1	104,0

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- oktabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari* – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish **2 251,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **146,1** % ga ko'paydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **680,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **137,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – **1 571,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **150,3** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Namangan viloyati	2251,7	100,0
Namangan shahar	1591,7	70,7
<i>tumanlar:</i>		
<i>Mingbuloq</i>	3,5	0,2
<i>Kosonsoy</i>	2,2	0,1
<i>Namangan</i>	9,4	0,4
<i>Norin</i>	12,2	0,5
<i>Pop</i>	81,8	3,6
<i>To'raqo'rg'on</i>	3,3	0,1
<i>Uychi</i>	12,4	0,5
<i>Uchqo'rg'on</i>	2,1	0,1
<i>Chortoq</i>	10,6	0,5
<i>Chust</i>	515,7	22,9
<i>Yangiqo'rg'on</i>	6,6	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan shahri (**1 591,7** mlrd. so'm), Chust (**515,7** mlrd. so'm) va Pop (**81,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Namangan viloyati bo‘yicha 2023- yilning yanvar-sentabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **7 221,8** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,8 %** ga o‘ydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **5 621,5** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **105,6 %** ga to‘g‘ri keldi. Namangan viloyati ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **77,8 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Mingbuloq (**1020,8 m**), Uychi(**209,5**) va Chust(**183,1**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- oktabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalari soni **25** tani tashkil etib, 2022- yil 1- oktabr holatiga nisbatan **3** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **127,7 %** tashkil etgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalar soni **1 876** tani tashkil etib 2022- yil ilkichik 1- oktabr holatiga nisbatan **609** taga ko'paygan.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – sentabr oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	7221,8	109,8	1600,3	127,7	5621,5	105,6
Namangan shahar tumanlar:	3881,8	111,8	801,8	126,4	3080,1	108,6
<i>Mingbuloq</i>	145,5	248,5	85,2	1020,8m	60,3	103,1
<i>Kosonsoy</i>	384,5	104,3	29,0	137,2	355,5	102,3
<i>Namangan</i>	317,1	96,1	25,2	56,8	291,9	102,3
<i>Norin</i>	442,4	107,8	102,6	131,4	339,8	102,2
<i>Pop</i>	176,9	74,5	0,1	0,2	176,8	102,9
<i>To'raqo'rg'on</i>	240,2	86,9	163,3	81,1	76,9	102,4
<i>Uychi</i>	468,9	116,6	118,3	209,5	350,6	101,5
<i>Uchqo'rg'on</i>	198,6	132,1	104,6	177,2	94,0	102,9
<i>Chortoq</i>	497,5	102,3	0,0	0,0	497,5	102,3
<i>Chust</i>	258,5	144,5	170,2	183,1	88,2	102,7
<i>Yangiqo'rg'on</i>	210,0	102,6	0,0	0,0	210,0	102,6



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 69-227-84-95**